



**O‘QUVCHILARGA ESTETIK TARBIYA BERISHDA O‘ZBEKMUSIQA
FOLKLORINING AHAMIYATI**

Botirbayev Maxmudjon

Buxoro Xalqaro Universiteti II bosqich magistranti

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti (PhD) professori

O‘zbek musiqa folklori asosida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolardan biriga aylandi. Chunki, o‘zbek musiqa folklori millatning ma’naviy-musiqiy boyligi hisoblanishi bilan birga uning mazmunida milliy urf-odat va an’analar, milliy mentalitet o‘z ifodasini topgan. O‘zbek musiqa folklori o‘zining o‘ynoqligi va jo‘shqinligiga ko‘ra o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda muhim didaktik vosita sanalanadi. Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Musiqqa madaniyati” o‘quv fani jarayonida O‘zbek musiqa folklorini o‘rganish o‘quvchilarning san’at asarlarini his etish, ulardan ma’naviy zavq olish, go‘zallikka intilish kabi xislatlarining shakllanishida alohida ahamiyatga ega.

Shu jihatdan ham bugungi kunda O‘zbek musiqa folklori asosida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash usullari, vositalarini, estetik tarbiyaning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini ochish zaruriyati alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki musiqa ta’limining ushbu yo‘nalishi o‘quvchilarda musiqa folkloriga oid nazariy va amaliy bilimlarni, badiiy-musiqiy, estetik tafakkurni shakllantirishda, ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda dolzarb muammolardan hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini tarkib toptirish, eng avvalo, mazkur jamiyatda yashayotgan kishilarning ma’naviy – axloqiy jihatdan yetukligi va yuksak darajadagi aqliy salohiyatiga bog‘liq.

Yosh avlodga ta’lim–tarbiya berish umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan har bir o‘quv predmeti hamda sinfdan tashqari olib boriladigan tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Maktab o‘quv predmetlari o‘quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik ta’lim-tarbiya tufayli o‘quvchilarda bir qator ijobiy sifatlar shakllanadi. Jumladan, ularda kuchli hissiy mushohada, mustaqil tafakkur yuritish qobiliyati, mantiqiy fikrlash xususiyatlari tarkib topadi. Shunday ekan, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarda estetik madaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.





O'quvchilarga estetik ta'lim-tarbiya berishda ma'naviy merosimizning tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy folklor yetakchi o'riningallaydi. Ta'lim jarayonida musiqiy merosdan foydalanish natijasida o'quvchilarni murakkab o'quv yuklamasidan xalos etish, ularni ma'naviy- axloqiy tarbiyalash, estetik didini rivojlantirish uchun imkoniyat vujudga keladi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda O'zbek musiqa folklorining ritmi, o'quvchiga tez ta'sir qilishi alohida ahamiyatga molik. O'zbek musiqa folklori o'zining etnik xususiyatlari va uslubi bilan boshqa voqa folkloridan keskin farq qiladi. Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbek musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni insonparvarlik, Vatanga muhabbat, bilim va ma'rifatga intilish ruhida tarbiyalash, urf-odatlar, an'analarni qadrlashga undovchi omil bo'lib, ular musiqa ta'limini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish va shu bilan birgalikda o'quvchilarni estetik tarbiyalashni taqozo qiladi.

Qayd etilgan muammolarni amalga oshirishda quyidagilarni alohida hisobga olish kerak.

Avvalo, musiqa ta'limining samaradorligini oshirishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Qolaversa, musiqa ta'limi orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalash usullari, vositalarini asoslash, estetik tarbiyaning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini ochish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

O'zbek xalq musiqasi har bir shaxsning ma'naviy kamolotini shakllantirishda, intellektual salohiyatini rivojlantirishda, qalb vavijdonini barqarorlashtirishda, ezgu orzu niyatlarini amalga oshirishda, barkamol insonni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga o'zining tili, ohangi, urf-odatlarini, qadriyatlarini tarannum etadi. O'zbek musiqa folklori mazmunida ezgulik g'oyalari hurmat-ehtirom, sog'lom turmush tarzi, mehr-oqibat, o'z yeri, tarixi, madaniyati bilan mag'rurlanish, mustahkam imon-e'tiqod, kuchli oriyat, pok vijdon, halol mehnat, yaxshilik, sadoqatli bo'lish kabi insoniy fazilatlarining ma'no-mohiyati ifodalangan. Demak, O'zbek musiqa folklori milliy musiqa ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

“Folklor” atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, ikki so'zdan tashkil topgan. “Folk” (*folk*)–xalq va lore (*lore*)–donolik so'zlarining birikmasidan iborat bo'lib, “xalq donishmandligi” degan ma'noni bildiradi. U birinchi marta Vilyam Toms tomonidan 1846 yilda ishlatilgan va shundan boshlab iste'molga kiritilgan.





Folklor–xalq ijodiyotining barcha sohalari singari xalq musiqasini ham o‘z ichiga oladi. Xalq musiqasi ayrim hollarda “Musiqah ahli” deb ham yuritiladi. Folklor qo‘shiqlari og‘izdan–og‘izga, avloddan–avlodga o‘tib to‘ldiriladi va sayqal topadi.

Folklor qo‘shiqlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, ularning g‘oyaviyligidadir.

Milliy musiqaning eng ommalashgan turi folklor qo‘shiqlaridir. Folklor qo‘shiqlarida voqea–hodisalar shaxsning botiniy kechinmalari o‘z aksini topadi va bu holat jamoaning his tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanadi. Shu boisdan ham folklor qo‘shiqlari o‘quvchi–yoshlarni estetik tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Folklor qo‘shiqlarining janr xususiyatlari mehnat qo‘shiqlari, xalq o‘yinlari va ularning taraqqiyot bosqichlari kabilar folklorshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Pedagogikada estetik tarbiya berish muammosi XX asrning 50–60 yillaridan boshlab rivojlana boshlagan. “Estetik tarbiyalash”, “estetik tarbiya”, tushunchalari amalga oshirilgan tadqiqotlarda keng tahlil qilindi.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, shaxsni kamol toptirish, uninghis-tuyg‘ulari, dunyoqarashi, ma’naviyati, madaniyatlilik darajasini rivojlantirishda san’at va adabiyotning o‘z o‘rni hamda mavqei bor.

O‘quvchilarni estetik tarbiyalashda musiqaning ahamiyatini alohida ta’kidlash zarur. Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida qo‘shiq va musiqaning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati muhimligi ko‘plab dalillar asosida ko‘rsatib berilgan. Biz ushbu maqolamizda vorisiylik tamoyiliga tayangan holda amalga oshirishni nazarda tutdik. Vorislik – tarixiy taraqqiyot jarayonida yangilik bilan eskilik o‘rtasida yuzaga keladigan zaruriy aloqa, bog‘lanish usulidir.

Shunday ekan, o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda ularning axloqiy sifatlariga ham e’tibor beriladi. Zero, estetik tarbiya aql bilan hissiyotni uyg‘unlashtirishdan iboratdir.

“Estetika” keng ma’noga ega bo‘lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o‘rgatadi. Estetika shaxs estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat bo‘lgan uzluksiz jarayondir. Bu jarayon shaxsning yosh xususiyatlari va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqichlar hamda darajalarga ega. Estetik tarbiya shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog‘liq bo‘lib, turli pedagogik





vositalar, shakllar va yo‘llar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati deganda. insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to‘plagan moddiy va ma’naviy qadriyatlari majmui tushuniladi.

O‘quvchi shaxsining estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o‘zlashtirishi natijasida hosil bo‘ladi. Shaxsning go‘zallik bilan o‘zaro munosabati, uning ayrim sifatleri o‘zaro ta’sir natijasida estetik madaniyati ham doimo o‘zgarib turadi.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Estetik ong.
2. Estetik munosabatlar.
3. Estetik idrok
4. Estetik qiziqish.

Estetik ong – ijtimoiy voqelik tabiat, san’at bilan bevositamuloqot jarayonida nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim – tarbiya natijasida shakllanadi.

Estetik munosabat – shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakat orqali ifodalanadi. Bunda estetik idrok birlamchi vazifani o‘taydi.

Estetik idrok - atrof muhitdagi buyum, narsa, hodisalarning estetik mohiyatini his qilish jarayoni.

Estetik qiziqish – o‘quvchida estetik faoliyatga intilish, voqelik va san’at asarlarini estetik jihatdan o‘zlashtirishga kirishishda ifodalanadi.

O‘quvchilar estetik madaniyat darajasiga o‘zlarini o‘rab turgan tevarak-atrofdagi narsa, hodisalar, kiyimlar, o‘yinchoqlar, oila a’zolarining o‘zaro samimiy munosabatlari yordamida hamda qo‘shiq, musiqa tinglash orqali erishadilar. Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar qo‘shiq aytish, ijrochilik, musiqa asboblari chalish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilar musiqa asboblari hamda atrof- muhitdagi kishilarga to‘g‘ri muomalada bo‘lish maqsadida, o‘zlari egallagan estetik madaniyat darajasini namoyish qiladilar. Buyuk alloma Forobiy musiqa asarlarining inson vujudi, ruhiyati, umuman, ma’naviyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, musiqa inson kayfiyatini o‘zgartirishdan tashqari, uning ma’naviy qiyofasiga ta’sir etishini estetik jihatdan asoslab bergan. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini aniq maqsadga yo‘naltirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar orqali estetik tarbiyalashda O‘zbek musiqa folklori muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.





ADABIYOTLAR:

1. F.G Nurullayev, Firdavs To‘xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1, Tom-2,12, 8-15 betlar
2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. [FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS](#). International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X
3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI](#), International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar
4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- Milliy Musiqa San’ati Ravnaq Topishida O‘zbek Folklorining O‘rni Va Ahamiyati- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- [BUXORO VOHASI FOLKLOR QO‘SHIQLARI O‘ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA](#), Confrencea - Virtual International Conferences, “International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education.” [Vol. 1 No. 1 \(2024\)](#)
6. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://confrencea.org> January 30th, 2024, Confrencea 1 (1),74-78
7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [SKRIPKA CHOLG‘U ASBOBIGA BIR NAZAR. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL PEDAGOGS | PED | VOLUME-76 | ISSUE-1\(2025\)](#)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [MUSIQA TO‘GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ](#) INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich .[O‘QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI](#). Vol. 75 No. 1





[\(2025\): PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS
| PED | VOLUME-75 | ISSUE-1.](#)

10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. [FOLKLOR QO ‘SHIQLARINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.](#) International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024
11. Rustamov Feruz Tavakkal ogli, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. EDUCATION OF A CHILD BY MUSIC IN THE EARLY PERIOD OF LIFE. (2023). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29–34. Retrieved from [https://sjird.journal](https://sjird.journal.spark.org/index.php/sjird/article/view/863)
12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O‘Quvchilarni Ma’naviy-Axloqiy Shakllantirishda O‘zbek Xalq Qo‘Shiqlari Ahamiyati. Progress Annals: Journal of Progressive Research|Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals. Published: 2023-12-06
14. X.M.Ashurmuxamadovna, N.F.Gaybulloyevich МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI. (2023). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(4), 14-19. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>
15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. “O‘ZBEK MUSIQASI TARIXI” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H. , Nurullayev F.G. O‘ZBEK FOLKLOR QO‘SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. Inter education & global study 2023
17. Z.X Xamrayev, F.G Nurullayev - O ‘ZBEK ESTRADA SAN’ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O ‘RNI - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitora Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. 2022/11/29 Vol.9, 422-427





19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*. 2022/11/24. Vol 12. 189-193
20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. *Ta'lim fidoyilari, OOO «Research and publications»* 2022. Vol 24, № 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-UMUMIY ÓRTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TARBIYASI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2022 Special issue, 130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»
22. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыке или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. *SCIENTIFIC PROGRESS*. 2021. Vol 2, №4 (pp. 588-593)
23. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
24. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. *Научно– методический журнал «Проблемы педагогики»* №3(48). Москва 2020. С.15-17.
25. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
26. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
27. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol.10, Issue 10, 2020.
28. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
29. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях // *Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов*. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
30. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). *Психология XXI столетия*, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

